



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Ch.Sh.Imamova

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinika asoslari
o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada eshitishda muammolari bo‘lgan o‘quvchilarni huquqiy madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondoshuvlari haqida so‘z boradi. Eshitishda muammolari bo‘lgan o‘quvchilarni huquqiy madaniyatini rivojlantirishdagi asosiy masalalar va yechimlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy ong, zamonaviy texnologiyalar, rag‘batlantirish, shaxsiy rivojlanish

Аннотация

В статье рассматриваются современные подходы к развитию правовой культуры учащихся с проблемами слуха. Освещены основные вопросы и решения в развитии правовой культуры учащихся с проблемами слуха.

Ключевые слова: правовая культура, образовательная программа, современные технологии, мотивация, развитие личности.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati qurish va adolatli jamiyat to‘g‘risida Markaziy Osiyo olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda asosan sharq uyg‘onish davri olimlari IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat tasniflari, ijtimoiy mas’uliyati mezonlarining nazariy jihatlar haqidagi g‘oyalar Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib,



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalar ijodida keng tahlil qilingan. Abu Nasr al-Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, “Davlat arbobining aforizmlari” asarlarida sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy tizim, siyosat, davlat va hokimiyat haqidagi qarashlar nazariy asoslangan. Abu Nasr Farobiyning fikricha adolatli davlatni ma’rifatli hukmdor boshqaradi, u ma’naviyat, adolat yetakchisi bo’lishi, o’z shaxsiy fazilatlarini bilan qat’iy talablarga javob berishi kerak deya fikr bildiradi¹. Abu Ali Ibn Sino fikricha ijtimoiy munosabatlar odamlar o’rtasidagi tafovut va tengsizlik natijasidir deb qaraydi. Ibn Sino “iqtisodiy va ijtimoiy hamda shaxsiy xususiyatlarga ko’ra tengsizlik – inson ijtimoiy faolligi sababi hisoblanadi” deb ta’kidlaydi. Ideal davlat qurish esa jamiyat aholisining ma’naviy-axloqiy ravnaqi bilan bog’liq. Uning ta’kidlashicha, ma’naviy axloqiy qadriyatlarining yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta’minlaydi². Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” dostonida davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy - axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga e’tibor qaratgan. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi. Jumladan, “Shohlikka da’vogarlar onadan ajib bir iste’dod bilan tug’iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo’ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko’ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish o’quvi bilan ham siylaydi” deb ta’kidlagan³. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarida “amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralastirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatleri to’g’risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir” degan fikrlari ajdodlarimizning davlat qurilishining adolatli tartibotlariga e’tibor berganligidan dalolatdir. Sohibqiron Amir Temurning quyidagi fikrlari hozirgi zamon bilan hamnafasdir: “Tajriba, - deb yozadi u, menga shuni ko’rsatdiki, din va qonunga

¹ Karimava O. Huquqshunoslik. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2010 yil. 176 bet.

² Redjaboyev A. Yoshlarni milliy istiqlol g’oyasi asosida Milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.: Avtoref. ... dis. ... ped. fan. nom. – T., 2004

³ Karimova O.A. Huquqni o’qitish metodikasi. – T., TDPU, 2010.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

tayanmagan hukumat, o‘zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo‘lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o‘xshatish mumkin. Shuning uchun men o‘z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o‘zim qat’iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim”. Sohibqiron Amur Temur fikricha, davlat boshqaruvida eng muhim qonuniyat – qonun ustuvorligi. “Qat’iy tartib va qonunlarga amal qilishim baxt-saodatim kaliti bo‘ldi”. Bosh qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Buning barchasi buyuk Temur adaolatli va fozil boshqaruvga alohida e’tibor qaratganligini ko‘rsatib turibdi. Alisher Navoiyideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum haqidagi qarashlarini o‘zining “Saddi Iskandariy”, “Mahbub ul qulub”, “Payg‘ambarlar va donolar tarixi” va boshqa asarlarida alohida to‘xtalgan. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzum muammolarini faqat adolatli dono hukmdor boshqarayotgan va qonun ustuvor bo‘lgan mamlakatda amalga oshishi mumkin. Shuning uchun, Alisher Navoiy adolat va qonun ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Xushfe‘l fazilatli va ideal shaxs haqida mulohaza yuritar ekan: Alisher Navoiy o‘ziga xos insonparvarlik nazariyasini yaratadi. Ahmad Yugnakiy «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar sovg‘asi») asarida ham o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy, iqtisodiy masalalar va ularni ma’lum talablar asosida tartibga solish haqidagi tavsiyalari bilan ham hozirgi davrgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarida ahloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy bilimlarning ham o‘rni beqiyosdir.

Zamonaviy jamiyatda mamlakatimiz olimlari tomonidan talaba egallashi mumkin bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, amaliy faoliyat tajribasi va kompetensiyalarni o‘zlashtirish o‘z dolzarbligicha qolmoqda. Inson huquqlari g‘oyasi rivojlanishining murakkab hamda ziddiyatli jarayonlarining va O‘zbekistonda inson huquqlarining hozirgi va o‘tmishdagi axvolini hisobga olmay turib, u bilan bog‘liq muammolarni anglash qiyin. Insoniyatning rivojlanish tarixi inson huquqlarining ta’minlanishi va muhofaza etilishi empirik yo‘l asosida amalga oshirilib, G.V.Malsevning fikriga ko‘ra «Yangi ma’naviyat va yangi huquqning yaratilishiga olib keladi va ular har-bir insonning o‘ziga hos tabiatidan kelib chiqqan bo‘lib, umuminsoniylik fazilati va uning tobora rivojlanib boruvchi huquqiy salohiyatiga bog‘liq». Tarixiy jarayonda



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

inson o‘z huquqini himoya qilish uchun ijtimoiy kurashlar davrini boshdan kechirgan. Bu jarayon har bir avlod inson huquqlarini qayta-qayta himoya qilishi lozimligini amalda isbotlab berdi. Masalan, Amerikalik huquqshunos olim T. Byurgental inson huquqlarining rivojlanishi to‘g‘risidagi xujjatlarni to‘rt asosiy bosqichga bo‘ladi⁴. Professor A.X. Saidov fikriga ko‘ra, inson huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilik o‘z taraqqiyotida uch katta bosqichni bosib o‘tgan.⁵ Taniqli olimlar R.A. Myullerson, V.I. Rostashikov va Ye.A. Lukasheva «Inson huquqlari, avlodlar» to‘g‘risida gapiradilar hamda ularni shaxsiy, siyosiy va iqtisodiy huquqlar singari uch asosiy avlodga tasniflaydi, bu inson huquqlarining rivojlanishi to‘g‘risidagi g‘oyasini buzib ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ham inson huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalar rivojlanishini o‘rganish va uni tasniflash maqsadga muvofiqdir⁶. Chunki inson huquqlari to‘g‘risidagi qonunlar g‘oyalar va ta’limotlar hamda huquqiy qarashlar zahirida yaratilgan. O‘z o‘rnida, turli xil fikrlar, ta’limotlar insonlar o‘rtasida o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda ta’minlash to‘g‘risidagi g‘oyalarning yanada takomillashuviga sabab bo‘ladi. Ana shularni e’tiborga olgan holda, inson huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalarning rivojlanishini quyidagi to‘rt asosiy bosqichga ajratish lozim deb hisoblaymiz.

Birinchi bosqich-dastlabki bosqich bo‘lib, boshlang‘ich jamoalar yuzaga kelishi va kishilarning turli guruxga bo‘linishi davlatning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan davrdir. Bu bosqichda ilk bor insonlar o‘z huquq va erkinliklariga egadirlar degan fikr paydo bo‘lib, bu ta’limot o‘sha davrdagi mutaffakirlarning diqqatini o‘ziga tortgan. Bu bosqichda inson huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalar asosan yozilmagan qonun-qoidalar (urf-odat huquqi) orqali himoya qilib kelingan. Bu davr islomga qadar inson huquqlari to‘g‘risidagi g‘oyalarning shakllanish bosqichidir.

Ikkinchi bosqich -o‘rta asrlarda bevosita “Sharq mutaffakirlarining inson huquqlari to‘g‘risidagi” g‘oyalarning shakllanish va rivojlanish davri. Bu bosqichda Sharq faylasufi Abu Nasr Farobiy Aflotun

⁴ Малко А.В. Теория государства и права в вопросах и ответах: учебно- методическое пособие. –М., Юрист,1997. – 272 с.

⁵ Мартишин О.В. Теория государства и права. Учебник. – М., Изд. Проспект, 2021. – 432 с

⁶ Redjaboyev A. Yoshlarni milliy istiqlol g‘oyasi asosida Milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.: Avtoref. ... dis. ... ped. fan. nom. – T., 2004.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

qarashlarini rivojlantirib, o'sha davrda inson baxtiyor va tinch xayot kechirish uchun qanday jamiyatta yashashi kerakligini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek ulug' mutaffakirlar Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Shayx Sa'diy, Shoyir Fuzuli va Sohibqiron Amir Temur o'zlarini huquqiy qarashlari bilan inson huquqlari to'g'risidagi ta'limotni yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Bu bosqich islom davlatchiligida inson huquqlariga oid ta'limotlarning rivojlanish davridir.

Uchinchi bosqich-bevosita O'zbekistonning sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan davri, bo'lib unda inson huquqlariga «sovetcha» e'tibor berilganligidir. Sho'rolar xokimiyati davrida inson huquqlariga e'tibor berishga partiyaviy, sinfiy manfaatlarga xizmat qilish nuqtai nazaridan qaralar edi. Bu davrda insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari sohasida ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsada, inson, uning moddiy, ma'naviy, shu jumladan milliy qadriyatlari orqa o'rinda turar edi.

To'rtinchi bosqich XX-asrning so'ngi o'n yili, ya'ni istiqlol sharofati bilan O'zbekistonda yangi huquqiy davrni boshlanishi. Bu davrda inson huquqlariga alohida e'tibor qaratildi. Mustaqil milliy davlatchilikning huquqiy poydevori yaratildi va 400 dan ortiq qonunlar qabul qilinib, milliy huquqiy tizim shakllandi. Ana shu qonunlardan inson huquqlari va erkinliklari g'oyasi o'z aksini topdi. Bu davrda qabul qilingan qonunlar demokratiya va inson huquqlari masalalarini hal qilishga qaratilgandir.

Ijtimoiy ongda inson huquqlari tushunchasining qaror topishi, ularni ro'yobga chiqarishda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar va nihoyat, inson huquqlarining halqaro miqyosida e'tirof etilishi -amalda bashariyatning hamda eng avvalo, davlatning tashkiliy va huquqiy boshqariladigan jamiyatida kishilar o'rtasidagi munosabatlarning tadrijiy rivojlanishi jarayonidir. Qanchalik g'ayritabiiy tuyulmasin, inson huquqlarining normal hayot faoliyatiga bo'ladigan turli tahdidlar va bunga samarali qarshilik ko'rsatish inson huquqlarini paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biridir. Shuning uchun, yosh-avlod tarbiyasida qadriyat, faol fuqarolik pozitsiyasiga yo'naltirish, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining asosiy komponenti hisoblanib, muayyan xulq va faoliyatning uzluksizligi sifatida xizmat qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish sharoitlari orasida ob'ektiv (ta'lim muassasasining demokratik hayot



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

tarzi, uning tarbiyaviy tizimining ochiqligi, ta'lim va tarbiya texnologiyalari) hamda sub'ektiv (ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi va o'quvchilarning shaxsiy sifatleri) sharoitlar orqali rivojlanadi. Ammo eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning huquqiy madaniyatini mazkur mezonlarni aniqlashtirish, jumladan huquqiy madaniyatini rivojlantirish bilan qiyoslash va ularda baholash mezonlari va vositalarini aniqlashni talab etadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning huquqiy madaniyatini kognitiv, faoliyatli, shaxsiy komponentlardan tashkil topadi: kognitiv, bilimlar va ularni egallash usullari bilan bog'liq. Bunga inson, shaxs, tsivilizatsiya, madaniyat, fuqaro, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, konstitutsiya, huquq va erkinliklar va boshqalar kiradi. faoliyatli komponent egallangan bilimlar va mazkur ko'nikmalarni amalga oshirish usullari asosida shakllanishi bilan belgilanadi. Faoliyatli komponent o'z ichiga ijtimoiy tanlov, ijtimoiy hatti-harakat, kommunikativ kompetensiyalarni kiritadi. Mazkur komponent fuqarolikning muayyan ko'nikma va malakalarga egaligini ko'zda tutadi (tanqidiy fikrlar, fuqarolik majburiyatlarini bajarish, siyosiy vaziyatni tahlil qilish, boshqa insonlar bilan hamkorlik qilish, fuqarolik bilimlari va demokratik protseduralarni egallaganlik, o'z huquqlaridan foydalanish va ularni himoyalashni bilish). Shaxsiy komponenti (motivatsion-qadriyatli) tashkil etuvchi, shaxsning o'z kompetensiyalarini amalga oshirishi jarayonida namoyon bo'luvchi uning motivlari va qadriyatlari rivojlanishini aks ettiradi: fuqarolik qadriyatlariga (boshqalarning huquqlariga hurmat, tolerantlik, millatlararo totuvlik va boshqalar), shuningdek ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etish, o'z hayotiy fuqarolik pozitsiyasiga egalik istagi kabi sifatlar orqali namoyon bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ajdodlarimiz tomonidan e'tirof etilgan ahloqiy-tarbiyaviy ilmiy meroslarda vatanparvarlik tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Chunki, ajdodlarimizning vatanparvarlikni madh etuvchi qadimgi afsona, mif, asotir va rivoyatlari. Shuningdek, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarning azmu-shijoati, qobiliyati, jasorati va mahorati haqiqiy ibrat namunasi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda bobolarimiz ilmiy merosi jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasi, milliy va umumbashariy



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th May 2025

qadriyatlarni tarannum etuvchi ilmiy asarlarining asl mohiyati ham qiziqarli suhbatlar va lavhalar hozirgi zamon talablari ahloqiy kamolotida va barkamol avlod taribiyasida ularning ijtimoiy faol va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda eng muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Muhammadali M. M. "Huquqiy madaniyat va ijtimoiy taraqqiyot" "O'zbekiston huquqiy axborot markazi" 2020 y.
2. Karimova R. "Huquqiy madaniyatning asosiy tamoyillari " "Adabiyot va san'at" 2018 y.
3. Saliev A. "Huquqiy madaniyat va uning rivojlanishi "Fan va texnologiyalar" 2021 y.
4. Usmanova L. "O'zbekistonda huquqiy madaniyatni shakllantirish" "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi" 2019 y.